



ALOHIDA EHTIYOJI BOR BOLALARNING TA'LIM OLISH XUSUSIYATLARI

D.I.Allayarov

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI umumiy
pedagogika va psixologiya kafedrasi
stajyor-o'qtuvchi*

Yuldashev Sanjarbek

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI 2-kurs
talabasi*

***Annotatsiya:** Inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirish, maktab yoshida ta'lim-tarbiya, ta'lim, integratsiya*

***Kalit so'zlar:** alohida ehtiyojga ega bolalar, inklyuziv ta'lim, ta'lim, ta'lim integratsiyasi, xulqi og'ir bolalar.*

Kirish:

Alohida ehtiyoji bor bolalarni tarbiyalash mamlakatimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatiga to'la-to'kis moslashuvi muammolarni har doim ham eng dolzarb o'rinni egallab kelgan masalalardan biri bo'lib kelgan. Biz har bir bolaning ehtiyojlari va boshqa sharoitlaridan qat'iy nazar, jamiyatga hissa qo'shishi uning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun sharoitlar va imkoniyatlar yaratishimiz kerak.

Inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika fanifa yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki imkoniyati cheklangan bolalarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, har doim alohida e'tiborda tutilishi kattalarning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "umumta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi lozim, maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi" Inklyuziv maktabda" bunday tizimga ehtiyoj bo'lmaydi. Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin. Ammo ularning pedagogik amaliyotini turidan to'g'ri boshqara olmaydi shuning uchun samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhakama qilinishi va ta'lim tizimini boshqaruvchilar hamda ularni



amalda qo‘llovchilar tomonidan ko‘rib chiqilishi zarur. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining ma‘naviy -ma‘rifiy va ijtimoiy rivojlanishiga e‘tiborni qaratish kuchaytirish lozim.

Integratsiyalashgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqilligi bilim jarayoni, faoliyati, qiziqishlari oshib boradi. Integratsiyalashgan darslarning mazmuni o‘qituvchining o‘qitish faoliyati o‘quvchining shaxsiga bag‘ishlangan, shu sababdan ular qobiliyatlarini har tomonlama oshib borishga o‘quvchilarning o‘ylash, his qilish, fikrlash jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi va ularni turli fanlarga oid bilimlarini oshirishga jalb qiladi. Integratsiya bir necha yo‘nalishda va turli darajalar birlashmasi sub‘ekt ichakdagi sub‘ektlarara sub‘ektlardan o‘zara integratsiya ajratish darkor, integratsiyalashgan bilimlardan doimiy foydalanish turli xil ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi. Integratsiya o‘zi uchun emas, o‘qituvchi faoliyatida ma‘lum tizim bo‘lganligi uchun yaxlit tizimning yakuniy tizimi bo‘lishi lozim. O‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘rganishning sub‘ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi degan savol yuzaga kelishi mumkin didaktikada turli fanlarga taaluqli o‘quv materialini bitta bosqichga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Ammo bu pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligi ko‘rsatmoqda. Integratsiyalashgan ta‘lim tizimining asosi bo‘lgan faoliyatga asoslangan yondashuv o‘qituvchiga tartibga soluvchi jarayonlar (maqsadga yo‘nalganlik, qaror qabul qilish, mustaqil fikrlash) eng muhim bolalar tafakkur turini faolligini oshirishga imkoniyat yaratdi. O‘qituvchilarning integratsiyasini kengaytirish va mustahkamlash, chuqurlashtirish bo‘yicha faol ishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va ta‘lim -tarbiya ularning ijodiy fikrlash faoliyatini, qobiliyatlarini shakllantirish muammolarni kompleks hal qilishning muhim usullaridan biri hisoblanadi.

Bolalarning xulq-atvoriga kuchli ta‘sir o‘tkazuvchi omil bu ota-ona, oila a‘zolari yaqinlari va maktab jamoasidir. Ta‘lim tizimida tarbiyasi og‘ir bolalar tuzatish ishlar. Maktab ichki nazoratiga olish va ular bilan davra suhbatini olib borish, tashkil etish o‘quvchilarni o‘zlari qiziqtirgan va o‘zlari intilgan to‘garaklar ochish darkor, va jalb etish lozimdir maktab o‘quvchilarining oilaviy sharoitini o‘rganish, ota-onalar bilan ko‘proq suhbatni kuchaytirish, maktablarning alohida ichki nazoratiga olingan o‘quvchilar bilan tushuntirish ishlarini olib borish zarurdir. Maktab o‘quvchilarining ushbu ro‘yhatga olinganligi o‘ziga va tengdoshlariga, o‘zgalarga oshkor qilmagan holda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish va ularga nazoratchi pedagoglarga biriktirish lozim. Maktab sharoitida o‘qituvchi ustozlarning



shirin soʻzi bolaga nisbatan kamtarona muomalasi, hamisha bolani oʻziga yaqin olib, oʻz paytida toʻgʻri maslahatlar berib borishlari lozim va bola qalbiga yoʻl topish omili hisoblanadi.

Bolaning biror bir narsaga qiziqishini payqab oʻqituvchi bu masala boʻyicha qoʻshimcha qiziqarli faktlar, amallar va qiziqarli maʼlumotlarni aqdim qilish, adabiyotlarni taklif qilishi, koʻrsatmalar beriishi mumkin. Badiiy imkoniyatlarga ega bolani spektakl va bayramga jalb qilish mumkin. Har bir rahbar bolaga shunday sharoitlar yaratish kerak. Pedagogik jarayon faqat oʻqitishdan chegaralanmaydi, ayrim pedagogik manbalarda dars soatlaridan keyin taʼlim -tarbiya ishlarini amalga oshirish nuqtayi nazaridan maktabda olib boriladigan barcha ishlarni bitta umumiy tushuncha sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar birlashtiradi. Boshqa manbalarda oʻquvchilar orasida tarbiyaviy ishlar bilan oʻquv fanlari boʻyicha fan toʻgaraklari, ijodiy ishlar tashkil qilish darkor.

Xulosa:

Bola tarbiyasida birinchi oʻrinda oilaviy sharoitini, tarbiyani, yaʼni oiladagi sogʻlom munosabatlarni qaror toptirish oila, maktab hamkorligini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish kerak. Bolani balogʻat yoshiga xos xususiyatlari toʻgʻri anglagan holda tarbiya jarayoniga yondashish lozimdir. Taʼlim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayonlari juda sekin kechikib baʼzida u bir qancha oʻn yillikga teng davrni qamrab oladi. Oʻquv jarayonida oʻqituvchi bir yoki bir qancha mashgʻulot, yoki bir necha lahza ichida talabani ilgarigi turli fanlariga oid oʻzlashtirgan bilimlarga tayanuvchi subʼektiv yangi bilimlarga olib kelishi zarur boʻladi. Integratsiyalashgan bilimlardan muntazam foydalanish turli xil koʻrgazmali qurollardan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxoʻjayeva N. " pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat ". TDPU -2003.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva. Sh.A. pedagogika nazariyasi. - T-: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.
3. Abdullayeva B.S Akademik litsey oʻquvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtirish darslari misolida) : Dis. ... Ped. Fan. Nom. - Toshkent: TDPU, 2002.